

SIMMETRIYA VA ASSIMETRIYA TERMINLARINING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI, TARIFI, AHAMIYATI

Baxtiyorova Sayyora

Lingvistika o'zbek tili yo'nalishi.2 kurs magistranti

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlariga xizmat qiladi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o'rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi .

Tilning tabiati, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

Til juda serqamrovli ijtimoiy kuch bo'lib, jamiyatning taraqqiyoti uchun yetakchi vositadir. Tilning mohiyati, kelib chiqishi, imkoniyatlari, ishlatilgan davr va zamon talablari nuqtayi nazardan o'rganuvchi fan tilshunoslik sanaladi. Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim – tildir.

Tilshunoslik yoki **Lingvistika** tillarni o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika — morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi. **Tilshunoslik**, „Lingvistika“ — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandır. Maqsadi va vazifasiga ko'ra, tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiy tilshunoslik — tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha; xususiy tilshunoslik — ayrim bir til belgi-xususiyatlarini o'rganuvchi soha; amaliy tilshunoslik — tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'nalish; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqa paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so'zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi. Mazkur yo'nalishlardan tashqari tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o'rganuvchi ko'plab tarmoq va bo'limlari bor: semasiologiya til birliklari ma'nolarini o'rganadi; fonetika va fonologiya tilning tovush qurilishini tekshiradi; leksikologiya va frazeologiya tilning lug'aviy materialini tadqiq etadi. So'z yasalishining tadqiqot obyekti

so'zlarning yasash usullari va ushbu usullarning mahsuldorligi bo'lsa, grammatika (morfologiya va sintaksis) so'z o'zgarishlarini va so'zlarning gaplar va so'z birikmalari sifatida birikishi qonuniyatlarini o'rganadi. Mazkur bo'limlarning har birida tilning hozirgi ahvoli va uning tarixiy taraqqiyoti tadqiq etiladi (Diaxroniya, Sinxroniya). Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. 6-asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharxlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. 5 — 4-asrlarda yashagan Panining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko'tarildi. Bu asar nazmda yozilgan 3996 ta qoidadan iborat bo'lib, unda sanskrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan. Yunonistonda til mantiqqa bog'liq holda, shuningdek, uning grammatik qurilishi nuqtai nazaridan o'rganilgan (Geraklit va Demokritning qarashlari, Platon va Aristotelning asarlari, Frakiyalik Dionisiyning „Grammatika“si va boshqalar). So'zlarni turkumlarga ajratish Aristoteldan boshlangan (mil. av. 4-asr). Qadimgi Yunon tilshunosligining kamoloti Iskandariyadagi, qisman Pergan (Kichik Osiyo)dagi yunon tilshunoslarining faoliyati bilan bog'liq. Iskandariya grammatika maktabi (mil. av. 3—2-asrlar) vakillari tomonidan yunon tili grammatikasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida ¹²⁷Lotin tilshunosligi vujudga keldi (M. T. Varron, E. Donat, Prissian va boshqalarning asarlari). Keyinchalik arab (Bag'dod, Kufa. Basradagi grammatika maktablari), kdd. yahudiy, oromiy (Andalusiya filologlarining 9— 12-asrlardagi asarlari) va turkiy (Koshg'ariy va Zamaxshariy asarlari) tillari ilmiy tavsif manbai bo'ladi. O'rta asrlarda tilshunoslikning rivoji arab, shuningdek, arab tilida ijod etgan arab bo'lmagan filologlar nomi bilan bog'liq. Arab Tilshunosligining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Javhariy singari o'rta osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo'lgan. Ibn Sino tovushlarni fonema nuqtai nazaridan tekshirgan bo'lsa, Javhariy, Koshg'ariy va Zamaxshariylar leksikologiya va leksikografiya sohasida jahon tilshunosligiga katta yangiliklar kiritdilar.

Maxmud Koshg'ariy va Zamaxshariy o'zlarining „Devonu lug'otit-turk“, „Muqaddimat uladab“ asarlari bilan turkiy lahjalarni hamda boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarni qiyoslash va chog'ishtirish bilan tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod va tipologiyadan foydalangan dastlabki tilshunoslar sifatida nom qozonganlar. Filologik fanlar Uzoq Sharqda, xususan, Xitoy va Yaponiyada ham rivojlandi. Rossiyada Tilshunoslik 15— 16-asrlardan boshlab taraqqiy qildi. M. V. Lomonosovning „Rus grammatikasi“ asarida rus adabiy tilining fonetik, morfologik, qisman sintaktik xususiyatlari birinchi marta izchil bayon qilindi. Uyg'onish davrida antik dunyo madaniy merosiga bo'lgan qiziqish klassik filologiyaning rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, yangi, zamonaviy yevropa tillarini mantiqiy asosda o'rganish boshlandi. . Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u

¹²⁷ R.Rasulov.Umumiy tilshunoslik.Toshkent.2007,14-15 bet

birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tillarning morfologiyasiga oid birinchi tadqiqot ishlari Aristotel davrida boshlangan. Aynan u o'zining "Poetika" asarida nutq qismlari, ot turlari va tilga alohida bo'limlar bag'ishlagan. Son-sanoqsiz murakkab nazariy masalalar tadqiqi bilan mashg'ul bo'lgan "grammatika" terminining yunoncha "yozuv san'ati" ma'nosini bildirishi ham aslida shu amaliy maqsadlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.¹²⁸

O'zbek tilshunosligida morfologiya sohasi o'zining munosib taraqqiyot tarixiga egadir. Turkiy til morfologiyasi tavsifini bergan va Mahmud Koshg'ariy asaridan foydalanganligi taxmin etilayotgan o'rta asr tilshunos - turkiyshunosidan biri Asiruddin Abu Hayyondir (1256–1345). Abu Hayyonning «Kitobul idrok lil-lisonil atrok», undan foydalanib XIV–XV asrda yozilgan va muallifi haligacha muammo bo'lib kelinayotgan «Attuhfatuz zakiya fil lug'atit turkiya» asarida o'zbek tili morfologik xususiyatining ilk sistemaviy bayoni beriladi. Har ikkala asar muallifi o'z talqinida arab tilshunosligi grammatik an'anasi va terminologiyasiga tayanadi, lekin turkiy tilning agglyutinativ tabiatini – so'z shakli yasash jarayonida o'zak-negizning o'zgarmasligini uqqan va o'z tavsifida uni ochib berishga intilgan. Ular o'z davri turkiy tili so'z o'zgartirish tizimi uchun xos bo'lgan deyarli barcha shaklning – ot va olmoshda ko'plik va kelishik, egalik shakli, fe'l nisbati, harakat nomi va sifatdash, bo'lishlibo'lishsiz shakli, mayli, zamoni va tuslanishi tavsifini, har birining arab tilida muqobilini sinchkovlik bilan yoritgan. Shuning uchun XI–XIV asr arabzabon turkiyshunosi o'z asarida o'sha davr turkiy tili morfologik tizimi va so'z yasash xususiyatining deyarli to'liq tavsifini bergan deb xulosa qilish mumkin.. Lekin «Devon» qayd qilgan va sharhlagan qator shaklning (chunonchi, o'tgan zamon birinchi shaxs birlik sonning bardam shakli, faqat shaxs olmoshi ega vazifasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'tgan zamonning -duq/duk tuslanmaydigan ko'rinishi – men yoy qurduq, sen yoy qurduq, biz yoy qurduq) o'zbek tili yodgorligida qo'llanilishi hali aniqlanmagan¹²⁹

Turkiy tilshunoslikda morfologiyaga kelsak, bu boradagi ilk qarashlar, bahslar IX-XI asrlarda yuzaga kela boshlagan va bunda arab tilshunosligi turtki bo'lgan. Shunday qilib, Mahmud Qoshg'ariy tomonidan ishlab chiqilgan va tuzilgan "Turkiy so'zlar lug'ati" turkiy turkumga kiruvchi o'zbek tiliga xos bo'lgan morfologiya, so'z yasalishi, jumladan, fe'lning ko'plab shakllariga oid jiddiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Buyuk shoir, adib va faylasuf Alisher Navoiy ham "Ikki til bahsi" asarida turkiy (eski o'zbek) tili leksik birliklarining graduonimiyasini ko'rib chiqib, eski o'zbek tili morfologiyasini o'rganishga katta e'tibor bergan. Alisher Navoiyning morfologik qarashi uning «Muhokamat-ul lug'atayn» asarida qisman o'z ifodasini topgan deyish mumkin. Alisher Navoiy turk (o'zbek) tilining shuhratini olamga yoyish bilan birga, umuman,

¹²⁸ Bahriddinova B.M. "Ona tilimiz taraqqiyotida yangi bosqich: muammo va yechimlar" <http://til.gov.uz/uz/news-andannouncements/anons/159>. 23.10.2021.

¹²⁹ Замонавий ўзбек тили. I жилд. Морфология. (Муаллифлар жамоаси). -Т.:МУМТОЗ СЎЗ, 2008. 17-бет

tilshunoslikning eng muhim masalasiga nisbatan o'z fikrini ham aytib o'tgan, o'z munosabatini bildirgan.

Lekin o'zbek tili sintaksisi va morfologiyasiga ilmiy nuqtai nazarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan haqiqiy kashshof Samarqand tilshunoslik maktabiga asos solgan olim Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitratdir. Aynan Fitrat ilk bor o'zbek tilidagi so'zlarni semantik xususiyatlariga ko'ra aniqlagan ot, fe'l, son va sifatdosh, ergash gap va olmoshlarning xususiyatlarini tahlil qilgan. O'zbek tilining klassik grammatikasida fe'l shakllari harakat otlarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, aslida gaplarda mustaqil ravishda ot vazifasini bajara oladi. Shuning uchun ham o'zbek tilining morfologik-semantik xususiyatlarini o'rganuvchilar keyingi yillarda mustaqil nutq birligi sifatida "o'zgarish turkumi"ni ajratishni qat'iy talab qilmoqdalar. Zamonaviy o'zbek tili fanining shakllanishi va taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan Abdurauf Fitratning ilmiy va ijtimoiy, jumladan, lingvistik dunyoqarashi bizdan ancha oldin – XIX asr Yevropa fani va madaniyati ta'sirini o'ziga singdirgan Turkiyada o'qigan yillarida (1909–1913) shakllandi. Bu «Sarf» dagi ilmiy talqinda ham o'z aksini topdi. Bunda u Yevropa lingvistik tahlil tamoyilini sharqiy an'ana chig'irig'idan ma'lum darajada o'tkazib, o'z tili qurilishini mana shunday – o'ziga moslashtirgan zamonaviy talqin usuli bilan tavsiflagan yosh turklar izidan bordi. Shuning uchun uning talqini, so'z turkumi, grammatik kategoriyaning tasnifi deyarli shu davrda nashr etilgan Ye.Polivanov (1891–1938)ning «Kratkaya grammatika uzbekskogo yazыka (– T. –M., 1926)»¹³⁰ dagi talqindan ancha farq qiladi. Har ikkala talqinning – Fitrat tavsifining ham, Polivanov tavsifning ham bosh manbai rus tilshunosligida XIX asr o'rtasida ishlab chiqilgan, tezda Yevropa tilshunosligida ham keng ommalashgan muosir tilning sinxronik tavsif metodi bo'lgani holda, Fitrat bu metodni semantik, onomasiologik, mazmun-fikrdan → tilga tamoyili kuchli fransuz variantini o'z an'ana va tiliga qisman muvofiqlashtirgan turklardan oldi, Polivanov esa shu metodning rus tilshunosligida ishlab chiqilgan va muosir turkiy til tavsifida sinalib, o'zini to'la-to'kis oqlagan formal ko'rinishda ishlab chiqilgan ilmiy tushuncha va grammatik talqin chizmasi asosida o'zbek tili qurilishi tavsifini berishga va shu bilan quyiroqda qurib o'tiladigan «Oltoy tili grammatikasi» modelini o'zbek tilshunosligiga olib kirishga intilgan. Fitrat o'zbek tilshunosligining o'sha davr uchun eng dolzarb bo'lgan masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi, unga o'z munosabatini bildirdi. Uning "Ishtirokiyun" gazetasida nashr qilingan "Tilimiz" maqolasining o'zi ham bunga asos bo'la oladi. Olimning "O'zbek tili qoidasi to'g'risida bir tajriba; "Sarf" asarida o'zbek tilining fonetik tizimi chuqur tahlil qilingan. Fitratning sof morfologik qarashi uning "Sarf" morfologiya asarida o'z ifodasini topgan. Fitratning so'zga jiddiy e'tibor berganligi, ayniqsa, so'zga ham, avvalo, ma'no anglatish nuqtai nazaridan yondashganligi, birinchi o'ringa mazmunni qo'yganligi, ya'ni ma'nodan shaklga qarab borganligi muhim.¹³¹

¹³⁰ Замонавий ўзбек тили. I жилд. Морфология. (Муаллифлар жамоаси). –Т.:МУМТО3 Сў3, 2008. 17 бет.

¹³¹ Nurmonov A.O'zbek tilshunosligi tarixi. –Т.: O'zbekiston, 2002. –B. 145.

Morfologiya sohasida N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqalar tomonidan «Nazariy grammatika», R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, T.Boqiyeva va boshqalar tomonidan substansial yoʻnalish asosida «Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Morfemika. Soʻz yasalishi. Morfologiya» qoʻllanmasi va boshqa darslik va qoʻllanmalarning nashr etilganligi diqqatga sazovordir. Qadimgi turkiy adabiy tili morfem tuzilishining hozirgi oʻzbek adabiy tili bilan mos keluvchi va farq qiluvchi tomonlari mavjud. Baʼzi shakllar isteʼmoldan chiqqan boʻlsa, baʼzilarining vazifasi oʻzgargan. Ayrımlari turli fonetik oʻzgarishlarda hozirgi turkiy tillarda uchraydi. Qadimgi turkiy tilda mavjud boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida saqlanmagan, lekin umumxalq tilida yoki boshqa turkiy tillarda uchraydiganlari ham yoq emas. Qadimgi turkiy tilda faol sanalgan ayrim shakllar hozirgi oʻzbek tilida **qoldiq** sifatida kuzatiladi.

Maʼlumki, davr oʻtishi bilan morfemalar maʼno oʻzgarishiga uchrashi mumkin; soʻz-morfema ham, affiks-morfema ham oʻz maʼnosini yoʻqotadi. Yaʼni ulardan biri isteʼmoldan chiqadi. Shunda tarixan mustaqil morfemalar bir soʻzga aylanib, hozirgi paytda maʼnoli qismlarga boʻlinmaydi. Bunga *qattiq, yuksak, yuksal, egiz, siljimoq*, qishloq soʻzlarini misol sifatida keltirish mumkin. Qadimgi turkiy til morfemalari hozirgi adabiy tildagidan fonetik variantlarining koʻpligi bilan farqlanadi. Hozirgi adabiy tilda koʻproq morfologik prinsipga amal qilinsa, qadimda fonetik prinsip ustun boʻlgan. Talaffuz qanday boʻlsa, yozuvda ham koʻproq shunga amal qilingan va bu adabiy til meʼyori hisoblangan. Tilshunoslikning har bir sathida davr va fan nuqtayi nazaridan moslik va nomoslik jihatlarini koʻrishimiz mumkin. Bunday moslik va nomuvofiqlik tilshunoslik uchun, uning qonuniyatlari uchun juda zarur jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda tilning tarixiy (diaxronik) va hozirgi (sinxron) holati oʻrganish nuqtasi boʻlib xizmat qiladi.

Tilshunoslik barcha fanlar bilan aloqador ekanligini endigi tariflar, tahlillar natijasida koʻrib oʻtamiz. Avvalo, borliqdagi moslik holatlarining simmetriyaga tarif quyidagicha:

Simmetriya –bu geometriya, rasm chizish, grafik dizayn, meʼmorchilik va boshqa sanʼatlar kabi turli xil fanlarga oid tushunchadir. Shuningdek, bu termin biologiya, fizika, kimyo va matematika kabi fanlarda uchraydi.

Geometriyada –bir butun sifatida tanani yoki figurani tashkil etuvchi qismlar yoki nuqtalarning muntazam joylashishida qayd etiladigan, markazga, oʻqqa yoki tekislikka nisbatan koʻrib chiqilayotgan obyekt qismlarining shakli, oʻlchami va holati boʻyicha tekshiriladigan aniq yozishmalar.

Biologiyada- simmetriya sifatida hayvonlar yoki oʻsimliklarning tanasida tanilgan yozishmalar markaz, oʻq yoki tekislik sifatida qabul qilinadi, ularga nisbatan organlar yoki ularga teng qisimli tartibli joylashtirilgan, moda.

Matematika loyihasini shakllantirish, simmetriya qaysi odatda birinchi joyda katta olim Vayl hikmatli soʻzi: “Simmetriya –noyob tartib orqali mukammal goʻzallik yaratadi, chunki oddiy odamni tushunishga harakat asrlar davomida bir fikrga kelisholmagan”, deya muhim mavzu ekanligi izohlanadi.

Eng tipik simmetrik hodisalar :

Qoyalar ;

Gullar va o`simliklar barglari;

Tirik organizmlar tabiiy bog`langan tashqi organlari.

Simmetriya hodisasini amaliy va uni tadqiq qilish qadimgi yunonlar orqali kirib kelgan.

Simmetriya uchun xususiyatlar:

Mutanosiblik;

O`xshashlik;

Tartiblilik.

Qadimda simmetriya ilohiy totuvlik ifodasi sifatida ko`rilgan. Qadimgi Gretsiyada faylasuflar butun koinot simmetrik bo`lib, u butun shaklda, deya da`vo qilishgan. Aflotun fikricha, butun dunyo elementlari tartibli. Buni quyidagicha izohlaydi:

element	shakl
yong'in	Tetraedr, osmonga o'z maqsadlari cho'qqisi sifatida.
suv	Icosahedron. Choice "katuchestyu" arbobi tufaylidir.
havo	Oktaedr.
yer	eng barqaror ob'ekt, deb kub bo'ladi.
olam	Dodecahedron.

Keyinchalik Pifagor o`z ta`limotida simmetriya turdoshlik va tenglikka asoslanadi, bu tushuncha buzilgan taqdirda assimetrik holat yuzaga kelishini isbotladi. Bu buyuk kashfiyot natijasida zamonaviy arxitektura paydo bo`ldi. **Assimetriya** esa simmetriyaning teskarisi, uning buzilishi. Shunday qilib, biz uni bir butunning shakli, hajmi va joylashuvi o`rtasidagi yozishmalar yoki muvozanatning yetishmasligi deb ta`riflashimiz

mumkin. Assimetriya obyekt yoki figura ko'rinishini tashkil etuvchi xususiyatlar o'rtasida ekvivalentlikning yetishmasligi sifatida namoyon bo'ladi. Assimetriyani tushunish simmetriyaga bog'liq. Simmetriya kompozitsiyasining asosiy xususiyati –muvozanat. Assimetriya simmetriyaning barcha elementlarining obyektiga yo'qligi bilan bog'liq. Assimetriya simmetriyaga qarama –qarshi turadi, ya'ni muvozanatning buzilishini aks ettiradi. Assimetriya va simmetriya butun obyektiv borliqning ikkita qaroqchisi, doimo birlikda va kurashda.

Shu tariqlarga suyangan holda Tilshunoslik uchun ham simmetriya va assimetriya hodisalar taalluqlidir.

Tilshunoslikda Simmetriya uchun tarif: sathlararo til birliklari o'rtasida o'zaro bir-biriga mos va o'xshash, tartib va tenglikka ega bo'lgan xususiyatlar, tamoyillar nazarda tutiladi. muvozanatning borligi, bir-biriga mosligi va nomutanosibligini tilshunoslikning har ¹³²bir sathida ko'rishimiz mumkin. Boshqa fanlardagi ta'riflardan shuni xulosa qilsahimiz mumkinmki, simmetriya til talablariga, xususiyatlariga qurilishiga davr nuqtayi nazaridan moslik bo'lsa, assimetriya bu moslikning buzilishidir. Tilning har bir sathida bunday simmetrik va assimetrik talqinni ko'rishimiz mumkin. Fanda har bir hodisa o'zida alohida xususiyatlarni, tuzilishni tartibni talab qiladi. Shu boisdan Simmetriya va assimetriya hodisalari uchun ham diaxron va sinxron jihatdan yondashish fandagi o'z o'rnini yanada mustahkamlaydi, til –so'z boyligi uchun xizmat qila oladigan birlik sifatida e'tiborga olinadi. Til sathlarining har biri uchun birdek taalluqli bo'lib, bu hodisalardan bir qanchasini tarixiylik va zamonaviylik jihatdan tahlil qilamiz.

1. Fonetik assimetriya- til tizimining tovush imkoniyatlaridan, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muvozanat buzilishi. 1. Ma'no farqlovchi tovushlar, ya'ni fonemalar o'zaro tartibli bir xil simmetrik joylashuvni talab qiladi: bir-pir, bayt-payt, bob-bop, dog'-tog', Hasan-Husan kabi. Agar tovushlarning joylashuv tartibi har xil, ya'ni buzilish ro'y bersa, tartibsizlik yuzaga kelsa, assimetrik hodisa yuz beradi: ost-sot, ust-sut. vafo-ona.

2. O'zbek tilida tomoq, qishloq, pishloq, quchoq kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, asos oxiridagi q tovushi g' tovushiga almashadi: tomog'i, qishlog'im, pishlog'i, quchog'i kabi. Lekin nutq, ravnaq, zavq kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda esa hech qanday fonetik hodisa yuz bermaydi, fonetik assimetriya namoyon bo'ladi.

3. Morfologik simmetriya- so'z turkumlari va grammatik vositalar o'rtasidagi moslik hisoblanadi. Masalan, Bog'imizga gullar ekishdi- gapida –imiz 1 shaxs ko'plikdagi egalik qo'shimchasi –lar grammatik ko'plik shakli bilan simmetrik moslik hosil qiladi.

4. O'zbek tilidagi kelishik shakllari ham Toshkentda, qalamdan, onamga, bog'ga, uyni, maktabning kabi so'zlarida simmetriyani hosil qilgan, ya'ni o'z vazifasini tartibli, muvozanatli bajargan. Lekin ba'zi so'zlarda oldinda, ortda, jo'rttaga, yuqoriga, pastda, quyiga kabi so'zlarda esa kelishik shakllari assimetrik holatni yuzaga keltirgan.

¹³² "Assimetriya" O'zme.A-harfi. 1 –jild, Toshkent, 2000-yil

5. Morfemik simmetriya- soʻz tarkibini muvozanatli ,tartibli joylashuvi: kitobxonlardan - asos- soʻz yasovchi qoʻshimcha – lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha- sintaktik shakl yasovchi .Bu tartib oʻzbek tili agglutinatsiyasi uchun mos .Lekin maqtanchoq soʻzida asos- lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha – soʻz yasovchi qoʻshimcha tartibida ,yaʼni assimetrik holatda joylashgan. Bunday namunalarni tilshunoslikning har bir sathida koʻrishimiz mumkin.

Til birliklari orasida simmetriya va assimetriya oʻzaro munosabatlari doimo qarama – qarshi turadi. Shu oʻrinda munosabat terminiga ham toʻxtalmoqchiman.

Munosabat (falsafada) — muayyan tizimdagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning oʻzaro bogʻliqligini ifodalovchi falsafiy tushuncha; biror narsa yoki hodisaga nisbatan shaxs mavqeyining ifodasi; turli obyektlarni yoki biror obyektning turli tomonlarini fikran taqqoslash. Munosabatlar tegishli elementlardan turli darajadagi murakkab tizimlarni keltirib chiqaradi. Masalan, har qanday qonun narsalar, hodisalar oʻrtasidagi muhim munosabat hisoblanadi va aksincha, ayni bir narsa boshqa narsalar bilan turli munosabatda boʻlishi mumkin. Bu esa u yoki bu narsaning koʻp xossaga ega ekanligini bildiradi. Har qanday narsani uni tashkil etuvchi elementlarning oʻzaro nisbati deb qarash mumkin. Bu nisbatning oʻzgarishi bilan narsalar ham oʻzgaradi. Jamiyatda kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan oʻzaro munosabatlar ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Mantiqda munosabatlar tabiiy tillardagi birdan ortiq egasi (yoxud bir ega yoki bir necha toʻldiruvchisi) boʻlgan gaplar kesimi bilan ifoda qilinadi. Gap egalari (ega va toʻldiruvchilar)ning soniga qarab binar (2 oʻrinli, 2 boʻlakli), ternar (3 oʻrinli, 3 boʻlakli) va umuman, p—ar (p — oʻrinli, p — boʻlakli) munosabatlar boʻladi. Bu turdagi munosabatlarni munosabatlar mantiqi oʻrganadi. Soʻzlarning simmetrik va assimerik holati binar munosabatda oʻrganiladi. Xulosa oʻrnida bu hodisalar til uchun ,uning rivoji uchun muhim munosabatlardan hisoblanadi.